


NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-mart oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-mart oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 263,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 99,5 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat To'var nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati, jahonning 58 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (17,9 %), Kanada (17,8 %), Rossiya Federatsiyasida (13,6 %), Litvada (7,2 %) va Turkiyada (7,1 %) qayd etilgan.



**NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR**
(2021- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	47,3	30,6	16,7	17,9
Kanada	47,2	45,5	1,7	17,8
Rossiya Federatsiyasi	35,9	8,0	27,9	13,6
Litva	18,8	2,3	16,5	7,2
Turkiya	18,8	9,4	9,4	7,1
AQSh	18,3	0,5	17,8	6,9
Qozog'iston	14,5	2,9	11,6	5,5
Yaponiya	10,6	-	10,6	4,0
Koreya Respublikasi	9,9	-	9,9	3,8
Chexiya Respublikasi	7,9	0,1	7,8	3,0

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Turkmaniston va Afg'oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Kanada, Rossiya Federatsiyasi, Litva, Turkiya, AQSh, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Chexiya Respublikasi hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI
(2021- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
Tashqi savdo aylanmasi	263,6	99,5	100,0
MDH davlatlari	65,1	91,2	24,7
Boshqa davlatlar	198,5	102,5	75,3



**NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO'YICHA
TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI
(2021- yil yanvar-mart, ming AQSh dollari)**

Tuman va shahar nomi	Tashqi savdo aylanmasi hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	263 645,6	99,5
Navoiy sh.	174 068,2	111,6
Zarafshon sh.	5 366,1	3,6 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	57 702,3	95,2
Konimex	298,4	34,5
Qiziltepa	3 216,8	27,6
Navbahor	5 031,5	48,7
Nurota	1 236,7	19,9
Tomdi	2 521,7	15,1 b.
Uchquduq	1 932,2	3,0 b.
Xatirchi	10 304,5	2,9 b.
Bo'linmaydigan hajm	1 967,2	-

2021- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasi hajmi 263,6 mln. AQSh dollarini 2020- yilning mos davriga nisbatan 99,5 % ni tashkil qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Kanada (43,8 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (13,9 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (1,4 mln. AQSh dollari), Turkmaniston (0,8 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	78,9	33,0	47,3
Eksport	23,0	2,1	30,6
Import	55,9	30,9	16,7
Saldo	-32,9	-28,8	13,9
Kanada	0,2	23,2	47,2
Eksport	0,1	23,2	45,5
Import	0,1	-	1,7
Saldo	0,0	23,2	43,8
Rossiya Federatsiyasi	42,8	37,0	35,9
Eksport	9,0	10,6	8,0
Import	33,8	26,4	27,9
Saldo	-24,8	-15,8	-19,9
Litva	3,1	25,4	18,8
Eksport	1,2	1,1	2,3
Import	1,9	24,3	16,5
Saldo	-0,7	-23,2	-14,2
Turkiya	29,5	12,4	18,8
Eksport	2,8	6,9	9,4
Import	26,7	5,5	9,4
Saldo	-23,9	1,4	0,0
AQSh	11,0	13,1	18,3
Eksport	-	-	0,5
Import	11,0	13,1	17,8
Saldo	-11,0	-13,1	-17,3
Qozog'iston	10,8	18,4	14,5
Eksport	1,1	1,2	2,9
Import	9,7	17,2	11,6
Saldo	-8,6	-16,0	-8,7


Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Yaponiya	12,5	2,4	10,6
Eksport	3,5	0,2	-
Import	9,0	2,2	10,6
Saldo	-5,5	-2,0	-10,6
Koreya Respublikasi	12,2	23,3	9,9
Eksport	-	-	-
Import	12,2	23,3	9,9
Saldo	-12,2	-23,3	-9,9
Chexiya Respublikasi	0,3	1,5	7,9
Eksport	-	-	0,1
Import	0,3	1,5	7,8
Saldo	-0,3	-1,5	-7,7
Ukraina	0,5	1,8	5,8
Eksport	0,3	0,7	0,6
Import	0,2	1,1	5,2
Saldo	0,1	-0,4	-4,6
Belarus Respublikasi	67,6	0,4	4,9
Eksport	0,1	0,2	0,3
Import	67,5	0,2	4,6
Saldo	-67,4	0,0	-4,3
Estoniya	0,8	1,9	2,4
Eksport	-	-	-
Import	0,8	1,9	2,4
Saldo	-0,8	-1,9	-2,4
Germaniya	2,5	2,9	2,3
Eksport	-	0,1	-
Import	2,5	2,8	2,3
Saldo	-2,5	-2,7	-2,3

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Turkmaniston	0,8	1,3	2,0
Eksport	0,7	1,1	1,4
Import	0,1	0,2	0,6
Saldo	0,6	0,9	0,8
Eron Islom Respublikasi	2,2	0,4	1,8
Eksport	1,5	-	0,1
Import	0,7	0,4	1,7
Saldo	0,8	-0,4	-1,6
Italiya	2,8	1,8	1,7
Eksport	-	-	-
Import	2,8	1,8	1,7
Saldo	-2,8	-1,8	-1,7
Fransiya	42,6	41,2	1,6
Eksport	42,0	41,0	-
Import	0,6	0,2	1,6
Saldo	41,4	40,8	-1,6
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	0,1	0,3	1,5
Eksport	-	-	-
Import	0,1	0,3	1,5
Saldo	-0,1	-0,3	-1,5
Afg'oniston	0,3	0,2	1,4
Eksport	0,3	0,2	1,4
Import	-	-	-
Saldo	0,3	0,2	1,4

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-mart oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 24,7 % ni tashkil etdi.



**NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH
MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING
HAJMLARI DINAMIKA**
(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-mart oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 102,5 % ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 75,3 % ni tashkil etdi.


NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-mart)

Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi 107,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil etdi.

Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (68,3 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (19,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,5 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 3,5 %
- Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari - 2,5 %
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 1,2 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 68,3 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 19,0 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari - 0,3 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 3,1 %
- Xizmatlar - 2,1 %




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart)

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	107,4	104,5	100,0	14,9	57,0	100,0	92,5	120,7	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,8	150,2	3,5	2,1	107,3	14,1	1,7	3,0 b.	1,8
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	2,6	19,6	2,5	1,6	13,3	11,0	1,0	82,6	1,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,4	12,2 b.	1,2	0,1	-	0,1	1,3	12,0 b.	1,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	73,3	110,1	68,3	0,7	60,1	4,8	72,6	111,0	78,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	20,4	134,4	19,0	6,8	80,2	45,8	13,6	2,0 b.	14,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,4	34,9	0,3	0,1	146,9	0,4	0,3	30,4	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	3,3	175,5	3,1	3,3	199,6	22,1	-	6,0	-
Xizmatlar	2,2	119,0	2,1	0,2	56,2	1,7	2,0	138,5	2,1

2021- yilning yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2020- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning mos davriga nisbatan mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, turli xil tayyor buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, xizmatlar hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.



NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-mart oylarida eksport hajmi 107,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-mart, % da)

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,9	2,5	3,5
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	2,6	13,2	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,8	0,1	1,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	71,0	64,9	68,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,4	14,8	19,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	3,8	0,9	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	0,5	1,8	3,1
Xizmatlar	3,0	1,8	2,1

2021- yil yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi 5,6 punktga oshib, 19,0 % ni, turli xil tayyor buyumlar 2,6 punktga oshib, 3,1 % ni, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 0,4 punktga oshib, 1,2 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO'YICHA EKSPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-mart, ming AQSh dollari)

Tuman va shahar nomi	Eksport hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	107 382,0	104,5
Navoiy sh.	81 422,6	112,4
Zarafshon sh.	1 053,5	156,2
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	8 926,2	137,6
Konimex	121,5	16,1
Qiziltepa	1 479,2	17,5
Navbahor	4 060,3	46,8
Nurota	1 036,3	151,0
Tomdi	293,6	187,1
Uchquduq	393,2	71,2
Xatirchi	8 220,8	3,8 b.
Bo'linmaydigan hajm	374,8	-

2021- yil yanvar-mart oylarida eksport hajmi 107,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 104,5 % kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
Eksport hajmi	107,4	104,5	100,0
MDH davlatlari	14,9	57,0	13,8
Boshqa davlatlar	92,5	120,7	86,2




**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA
XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan eksport ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich 13,8 va 86,2 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-mart, % da)



2021- yilning yanvar-mart oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining 42,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi (28,5 %), Turkiya (8,8 %), Rossiya Federatsiyasi (7,4 %), Qozog'iston (2,7 %), Litva (2,2 %) va Afg'oniston (1,3 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 93,3 % ni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi bir pog'onaga tushishi hisobiga, Kanada eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni 27 tani tashkil etdi.



**NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-mart)**

Davlatlar	Ming AQSh dollari		2020- yilning yanvar- martiga nisbatan, % da	O'ri
	2020- y.	2021- y.		
Kanada	23 228,5	45 478,7	195,8	1
Xitoy Xalq Respublikasi	2 109,0	30 620,9	14,5 b.	2
Turkiya	6 882,6	9 405,4	136,7	3
Rossiya Federatsiyasi	10 569,1	7 951,8	75,2	4
Qozog'iston	1 187,7	2 886,2	2,4 b.	5
Litva	1 127,9	2 309,6	2,0 b.	6
Afg'oniston	175,4	1 445,3	8,2 b.	7
Turkmaniston	1 066,1	1 425,6	133,7	8
Singapur	383,0	1 317,8	3,4 b.	9
Qirg'iz Respublikasi	12 170,5	1 171,5	9,6	10
Ukraina	756,8	625,0	82,6	11
AQSh	22,6	535,4	23,7 b.	12
BAA	135,5	507,0	3,7 b.	13
Tojikiston	104,9	429,1	4,1 b.	14
Belarus Respublikasi	155,1	318,6	2,1 b.	15
Vetnam	-	175,1	-	16
Eron Islom Respublikasi	-	128,1	-	17
Chexiya Respublikasi	39,6	108,3	2,7 b.	18
Hindiston	-	77,0	-	19
Ozarbajjon	-	53,1	-	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.




NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart, ming AQSh dollari)

	Kanada		Xitoy Xalq Respublikasi		Turkiya		Rossiya Federatsiyasi	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	23 228,5	45 478,7	2 109,0	30 620,9	6 882,6	9 405,4	10 561,1	7 951,8
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	50,4	93,9	10,1	-	977,9	599,2
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	622,6	-	558,8	722,9	3 433,0	40,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	107,8	25,9	-	1 149,8	-	14,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	23 093,5	45 202,3	-	27 406,0	1 341,0	-	-	-
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	135,0	276,4	593,7	3 095,1	4 141,3	6 420,7	5 395,2	4 807,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	734,5	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	88,7	-	343,6	2 266,6
Xizmatlar	-	-	-	-	742,7	1 112,0	419,4	222,8



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 2,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,1 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 119,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (80,9 %), safarlar (turizm xizmatlari) (12,5 %), moliyaviy xizmatlar (5,4 %), va boshqa xizmatlar (1,2 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2021- yil yanvar-mart, ming AQSh dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 753,2 ming AQSh dollar qiymatli 2 828,0 tonnadan ortiq meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2020- yilning mos davriga nisbatan 70,9 % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida 1,6 % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida 923,6 ming AQSh dollarini, Xatirchi tumanida 297,5 ming AQSh dollarini, Zarafshon shahrida 256,3 ming AQSh dollarini, Karmana tumanida 202,9 ming AQSh dollarini va Navbahor tumanida 58,2 ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (69,0 %), Rossiya Federatsiyasi (12,8 %), Eron Islom Respublikasi (7,3 %) va Belarus Respublikasi (5,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar-mart)

Davlatlar	2020- yil			2021- yil		
	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi *, % da	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi*, % da
Qozog'iston	290,4	190,9	7,7	2 255,2	1 210,6	69,0
Rossiya Federatsiyasi	1 463,1	978,0	39,6	141,5	223,6	12,8
Eron Islom Respublikasi	-	-	-	124,0	128,0	7,3
Belarus Respublikasi	235,0	155,0	6,3	204,9	97,1	5,5
Xitoy Xalq Respublikasi	51,2	50,4	2,0	102,4	93,9	5,4
Qirg'iz Respublikasi	326,1	674,8	27,3	-	-	-
Iroq	235,1	181,2	7,3	-	-	-
Afg'oniston	521,8	118,2	4,8	-	-	-
Pokiston	48,0	72,0	2,9	-	-	-
Gruziya	42,0	46,1	1,9	-	-	-
Koreya Respublikasi	5,0	5,0	0,2	-	-	-

*-qiymat ifodasida


NAVOIY VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-mart)

2021- yil yanvar-mart oylarida import hajmi 156,2 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 96,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (61,9 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (12,2 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (9,4 %) ga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 2,9 %
- Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari - 0,8 %
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 0,0 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 9,4 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 12,2 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari - 61,9 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 5,9 %
- Xizmatlar - 6,9 %

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi 145,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 10,7 mln. AQSh dollariga yetdi.



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart)


XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	156,2	96,3	100,0	50,2	111,0	100,0	106,0	90,6	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,6	5,3 b.	2,9	4,3	5,4 b.	8,5	0,3	4,5 b.	0,3
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	1,2	141,9	0,8	0,6	3,4 b.	1,2	0,6	89,0	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar	0,0	-	0,0	-	-	0,0	-	-	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	14,7	71,0	9,4	4,0	95,9	8,0	10,7	64,7	10,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	19,0	64,4	12,2	15,1	79,2	30,1	3,9	37,5	3,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	96,8	99,6	61,9	18,3	130,7	36,3	78,5	94,4	74,0
Turli xil tayyor buyumlar	9,2	96,8	5,9	6,7	113,0	13,4	2,5	70,1	2,4
Xizmatlar	10,7	3,1 b.	6,9	1,2	120,3	2,5	9,5	3,9 b.	8,9

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunolari (61,9 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (12,2 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (9,4 %), shuningdek MDH mamlakatlarida mashinalar va transport asbob-uskunolari (36,3 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (30,1 %) ga to'g'ri keldi, boshqa xorijiy mamlakatlarga ham eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (74,0 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (10,1 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2020- yilning mos davriga nisbatan faqat oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,3 b. %), xizmatlar (3,1 b. %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (41,9 %) o'sgan, ammo barcha import qilinadigan tovarlar 2020- yilning mos davriga nisbatan kamaydi.



NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-mart oylarida import hajmi 156,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI
(yanvar-mart, ulush, % da)

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,0	0,5	2,9
Ichimliklar va tamaki	0,3	-	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,5	0,5	0,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	0,2	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	8,7	12,8	9,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	16,0	18,2	12,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	62,5	59,8	61,9
Turli xil tayyor buyumlar	10,0	5,9	5,9
Xizmatlar	0,9	2,1	6,9

2021- yil yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, xizmatlarda 2020- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi 2,1 % dan 6,9 % gacha, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda importning ulushi 0,5 % dan 2,9 % gacha, mashinalar va transport asbob-uskunalarda esa 59,8 % dan 61,9 % gacha o'sdi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLARI BO'YICHA IMPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-mart, ming AQSh dollari)

Tuman va shahar nomi	Import hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	156 263,6	96,3
Navoiy sh.	92 645,6	110,9
Zarafshon sh.	4 312,6	5,2 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	48 776,1	90,1
Konimex	176,9	162,3
Qiziltepa	1 737,6	54,7
Navbahor	971,2	59,1
Nurota	200,4	3,6
Tomdi	2 228,1	229,7 b.
Uchquduq	1 539,0	18,4 b.
Xatirchi	2 083,7	154,5
Bo'linmaydigan hajm	1 592,4	-

2021- yil yanvar-mart oylarida import hajmi 156,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 96,3 % ni tashkil etdi.




NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
Import hajmi	156,2	96,3	100,0
MDH davlatlari	50,2	111,0	32,1
Boshqa davlatlar	106,0	90,6	67,9

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich 32,1 va 67,9 % ni tashkil etdi.




**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA
XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva, Qozog'iston, Yaponiya va Koreya Respublikasi) jami importning 71,1 % ini tashkil qiladi, bu 110,9 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-mart, % da)



Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi va Litvadan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasi umumiy import hajmida 17,9 % ulushi bilan AQSh davlatini (11,4 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-mart)**


Davlatlar	Ming AQSh dollari		2020- yilning yanvar- martiga nisbatan, % da	O'rni
	2020- y.	2021- y.		
Rossiya Federatsiyasi	26 439,4	27 916,6	105,6	1
AQSh	13 120,8	17 745,0	135,2	2
Xitoy Xalq Respublikasi	30 918,0	16 671,9	53,9	3
Litva	24 265,2	16 546,8	68,2	4
Qozog'iston	17 186,9	11 596,5	67,5	5
Yaponiya	2 181,1	10 569,1	4,8 b.	6
Koreya Respublikasi	23 262,9	9 903,0	42,6	7
Turkiya	5 506,5	9 397,7	170,7	8
Chexiya Respublikasi	1 457,4	7 815,9	5,4 b.	9
Ukraina	1 068,3	5 142,9	4,8 b.	10
Belarus Respublikasi	213,3	4 567,1	21,4 b.	11
Estoniya	1 950,0	2 436,6	125,0	12
Germaniya	2 818,5	2 324,7	82,5	13
Italiya	1 825,4	1 718,6	94,2	14
Kanada	-	1 693,6	-	15
Eron Islom Respublikasi	445,9	1 669,4	3,7 b.	16
Fransiya	243,6	1 624,3	6,7 b.	17
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	344,6	1 546,7	4,5 b.	18
Belgiya	509,7	1 073,5	2,1 b.	19
Finlyandiya	2 665,1	792,2	29,7	20

2021- yil yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha 50 ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

2021- yil yanvar-mart oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 10,7 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 6,9 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 b. % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi qurilish xizmatlari (70,6 %) va transport xizmatlari (20,0 %) dan iborat bo'ldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2021- yanvar-mart, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**

Tel.: (99879) 222-04-36